

## BADIIY ASARLARNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI

Davlatova Dildora Absalom qizi  
Jizzax viloyati Jizzax shahari  
6-IDUM ona tili fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada badiiy asarlarning inson ruhiyatiga ta'siri haqida zamonaviy fikr mulohazalar yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Til, faoliyat, madaniyat, sinxron, grammatika, mantiq, psixologiya, tamoyillar, munosabat, tilshunoslik, badiiy adabiyot, inson ruhiyati, muallif, kitobxon, qalb kechinmalari, qahramon*

**Аннотация:** *В данной статье обсуждаются современные мнения о влиянии произведений искусства на психику человека*

**Ключевые слова:** *Язык, деятельность, культура, синхронность, грамматика, логика, психология, принципы, отношения, языкознание*

**Annotation:** *In this article, modern opinions are discussed about the influence of works of art on the human psyche*

**Key words:** *Language, activity, culture, synchronicity, grammar, logic, psychology, principle, relationship, linguistics, fiction, human psyche, author, reader, heart experiences, hero*

### KIRISH

Hozirgi zamonaviy texnika va texnologiyalar asrida insonlarni ommaviy madaniyat qurshovidan asrab qoluvchi eng ma'naviy boylik bu badiiy adabiyotlar hisoblanadi. Hozirgi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan yoshlarni kitobxonlikka keng jalb qilish borasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, har bir oliy ta'lim muassasi balki mahallarda ham kitobxonlik tanlovlari o'tkazilib kelinmoqda. Bu bilan biz juda katta natijalarga erishishimiz balki ma'naviy dunyoimizni kengaytirishimiz mumkin. Bu hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Badiiy adabiyot, badiiy asarlar insonlarga juda kuchli ta'sir ko'rsata oladigan ilohiy bir kuchdir. U inson his-tuyg'ularini va ongini tarbiyalashda ulkan ro'l o'ynaydi. Badiiy asarlarning mualliflari bilan birgalikda kitobxon hayotning turli tomonlari, xarakterlar va hodisalar mohiyatiga kirib boradi hamda o'zida ularga bo'lgan

munosabatni shakllantiradi. Insonni o'ylashga, fikrlashga va kechayotgan voqealarni tahlil qilishga chorlaydi. Badiiy adabiyot bitmas-tuganmas g'oyalar manbai hisoblanadi. Unda turli zamonlardagi kishilarning fikrlari, o'y-mulohazalari, orzu-umidlari, jamiyatdagi siyosiy, mafkuraviy, axloqiy-ta'limiy, falsafiy, diniy va boshqa xildagi qarashlar o'z aksini topadi. Shu bilan birga, o'zi aks ettirgan g'oyalar bilan kishilar qalbiga, ruhiga kuchli ta'sir o'tkazib, ularda yangi-yangi qarashlar, fikrlar tug'ilishiga, ularning ma'naviy jihatdan boyishiga, ongining o'sishiga xizmat qiladi. Inson ruhiyati tasvirlanar ekan, uni shakllantiruvchi, yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita jamiyat, ijtimoiy muhit ekanligi ma'lum. O'smir shaxsi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir, buning sababi, u doimo inson davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'ladi. Shunday ekan, uning hissiy va aqliy rivojlanishida ijtimoiy muhit katta o'rin tutadi.

Inson ruhiyati va ma'naviyatiga ta'sir etuvchi asarlar juda ko'p. Masalan, Said Ahmadning "Ufq", Isojon Sultonning "Boqiy darbadar", O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin", Ahmad Lutfi Qozonchining "O'gay ona" kabi. Har bir insonni bosayotgan qadamini o'ylantirib qo'yishga chorlaydigan asarlardan biri - Ahmad Lutfi Qozonchining "O'gay ona" asari hisoblanadi. Asardagi qahramonlarning holatiga diqqat qaratadigan bo'lsak, qalbimizda bir tug'yon jo'sh uradi, qalbimiz larzaga keladi, ana shu qahramonlar holatida o'zimizni bir zum his qila olamiz: "Ota ko'ngli bir ayol bilan to'lishi mumkin. Faqat bola ko'nglini oladigan, ko'nglini to'ldiradigan ayol endi dunyoda yo'q.

## MUHOKAMA

Ota sevgisi bir insonga bo'lgan sevgidan iborat, bolaning mehr-muhabbati esa faqat onaga bog'liqdir. Ona yer yuzida bir donadir, yagonadir. Uning onasi o'lgach, uyga yangi bir ona keladi. Otaning aytishicha, bu onaning avvalgisidan kamchilik tarafi yo'q. Faqat bolaning fikricha, bu ona bilan avvalgi onani qiyoslash inson bilan uning soyasini tenglashtirishdek gap. Biri butun borlig'i bilan shafqat va marhamatdan iborat bo'lsa, boshqasi faqat moddiy va shakliy jihatdangina onaga o'xshaydi. Biri sevsa, ikkinchisi uradi, biri bag'riga bossa, o'zgasi ko'ksidan itaradi.

Birinchi - ona, ikkinchi - o'gay ona". [1] Kitobxon mana shu satrlardan ham qahramonning ichki dunyosini, qahramon tilini, ruhiy holatini anglab olsa va o'ziga zarur xulosalarni chiqarsa ajab emas.

## NATIJA

Badiiy adabiyotning ko'p asrlik taraqqiyoti, uning kishilar dunyosiga, ularni qurshab turgan tashqi borliq bilan aloqalariga va o'zaro munosabatlariga tobora chuqur kirib borganligidan dalolat beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, badiiy adabiyotning bosh mavzusi insondir. Insonning badiiy asarlarda markaziy o'rinni egallashi dunyoni badiiy ravishda anglash va ijod sohasida kishilik tomonidan bosib o'tilgan katta yo'lning natijasi hisoblanadi. Ushbu asarning yana bir holati insonning ruhiyatiga, insoniyligiga bevosita ta'sir etmasdan qolmaydi: "Tush, Quyosh harorati kuchayganida qabristondan naqdar gunohkor va bemehrligini anglagan ota hamda uning ota mehridan mahrum bo'lgani uchun ona xokini yuzga surtib, ona tuprog'iga bosh urishdan boshqa chorasi qolmagan tolesiz o'g'li chiqishmoqda..." [1] Parchaga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak, otaning o'z zuryodi hisoblanmish farzandi arjumandiga qanchalik e'tiborsizligini balki farzandi oldida gunohkor ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'z otasidan balki butun hayotning shafqatlisizligidan charchagan, ayni yoshlik chog'ida mehr olishi kerak bo'lgan davrida hech kimdan najot topa olmagan bola oxiri najotni ona qabridan topishi bu anchagina kitobxonni tashvishga soladi. Asardan kitobxon o'ziga nima oladi?! Eng avvalo, hayotga bo'lgan qarashi o'zgaradi. Muhabbat, mag'lubiyat, qat'iyat, ishonch, g'alaba, mehnat, hissiyot, harakat, tajriba kabi tushunchalarni qaytadan kashf qiladi. Bevosita asardagi qahramon bilan qalban yaqinlashadi, ruhan eziladi, bir zum o'zini qahramon holatiga solib ko'radi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, badiiy adabiyotning inson hayotida ahamiyati juda yuqori. Inson ardoqlab keladigan eng noyob hislar insonparvarlik, adolat, shafqat, o'zaro hamjihatlik, do'stlik, mehr va muruvvat, sevgi-muhabbat singari o'lmas insoniy tuyg'ular kishi ongida, shuurida, ruhiyatida mujassamlashadi

va bu hislar adabiyotga oshno insonlar qalbiga ko'chib o'tadi. Tuyg'ular esa faqat aql orqali emas, balki ko'ngil, yurak orqali seziladi, ta'sir o'tkazadi. Shunday ekan, badiiy asarlar badiiy adabiyotning muhim ajralmas tarkibiy qismidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanish. Prospects of Development of Science and Education, 1(2), 247-249.
2. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O 'zbekistonda ilm-fan va ta 'lim masalalari: muammo va yechimlar, (3), 71-73.
3. Шайхисламов, Н. (2021). ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ЙУНАЛИШИ: КОНТАКТ ЛИНГВИСТИКАСИ. Scientific progress, 7(4).